



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 3-iyun, seshanba,  
65 (24.091)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Qadim  
do'stlik  
zanglamas

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz



## O'zbekiston-Xitoy:

hamkorlikning yangi bosqichi Samarqandda belgilandi

Samarqand shahrida O'zbekiston-Xitoy ikkinchi hududlararo forumi o'tkazildi.

Forumda Xitoyning ko'plab hududlari yetakchilari, ta'lim, energetika, qurilish, neft-kimy, qishloq xo'jaligi, avtomobilsozlik, oziq-ovqat sanoati, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot sohasida faoliyat olib borayotgan ilg'or kompaniyalari vakillari ishtirok etdi. Mamlakatimizning barcha hududlari rahbarlari, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, tadbirkorlar ishtirokida hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Hozirda Xitoy O'zbekistonning mintaqadagi eng yirik sarmoyadori hisoblanadi. Xitoy kapitali ishtirokida yurtimizning har bir hududida yuzlab ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilgan.

Ikki davlat rahbarlarining o'zaro muloqotlari natijasida yil sayin hamkorlik aloqalari kengayib, yaxshi qo'shniçilik, ishonçli do'stlikka asoslangan sheriklik munosabatlari rivojlanib bormoqda, - dedi forum ochilishida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari Jamshid Xodjayev. - 2024-yil yanvar oyida davlatimiz rahbarining Xitoyga tashrifi davomida Urumchi shahrida birinchi hududlararo forum bo'lib o'tdi hamda qator ijtimoiy-iqtisodiy kelishuvlarga erishildi. Bugungi ikkinchi forumga Xitoydan mingga yaqin tadbirkorlar, mamlakatimiz hududlaridan esa 1500 ga yaqin biznes vakillari ishtirok etayotgani ham ushbu forumga bo'lgan katta qiziqishni ko'rsatadi.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, keyingi besh yilda O'zbekiston va Xitoy o'rtasida savdo aylanmasi ikki barobarga oshib, 2024-yilda 13 milliard dollarga yetdi. 2017-yil bilan solishtirilganda Xitoydan O'zbekistonga jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar besh barobarga, qo'shma korxonalar soni uch barobarga ortdi. Birgalikda kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, maishiy texnika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Xitoy

kompaniyalari uchun alohida imkoniyat yaratish maqsadida hududlarimizda 8 ta O'zbekiston-Xitoy sanoat parki faoliyat yuritmoqda. Hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish va rivojlantirish borasida amaliy ishlar davom ettiriladi.

SHHTning qo'shniçilik, do'stlik va hamkorlik bo'yicha Xitoy qo'mitasi raisi Shen Yueyue o'z nutqida ushbu forumning ahamiyati, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik, yaxshi qo'shniçilik, do'stona muloqot va ishonçli iqtisodiy sheriklikni e'tirof etdi.

Forumda hududlar rahbarlari so'zga chiqib, iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyat va salohiyatlari to'g'risida ma'lumot berdilar. Shundan so'ng ikki davlat vakillari o'rtasida O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Energetika vazirligi va Sian neft universiteti o'rtasida O'zbekistonda Sian neft universiteti filialini tashkil etish to'g'risida bitim, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Sian xalqaro tadqiqotlar universiteti o'rtasida ta'lim sohasidagi anglashuv memorandum hamda bir qator kelishuv va shartnomalar imzolandi. Forum doirasida O'zbekiston va Xitoy ishbilarmonlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'rgazmasi ham o'tkazildi.

Kunning ikkinchi yarmida ishbilarmon, investorlar ishtirokida savdo-iqtisodiy hamkorlik, innovatsiyalar, texnologiyalar va yashil iqtisodiyot bo'yicha biznes-forum,

muhandislik sohasida ta'lim va kadrlar tayyorlash, O'zbekiston va Xitoyning tarixiy poytaxtlarini saqlash va rivojlantirishga ko'maklashish, xitoy tilini xalqaro miqyosda yuqori sifatli o'qitish masalalariga bag'ishlangan sessiyalar o'tkazildi.

"Kafimizdagi Buyuk Ipak yo'li - O'zbekiston va Xitoy innovatsiya hamda tadbirkorlik bo'yicha hamkorlik" xalqaro ayollar forumida ayollarning innovatsion tashabbuslari va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish masalalari keng muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova, Xitoy Xalq Siyosiy maslahat Kengashi 14-chaqiriq yig'ilishi raisining o'rinbosari, SHHTning qo'shniçilik, do'stlik va hamkorlik bo'yicha Xitoy qo'mitasi raisi Shen Yue Yue, Shensi provinsiyasi ayollar federatsiyasi rahbarlari, tadbirkor ayollar, davlat va nodavlat tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Shuningdek, forum doirasida zamonaviy qishloq xo'jaligi hamkorlik forumi o'tkazildi. Ushbu forum har ikki tomon ishbilarmonlari uchun qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish, yangi imkoniyatlarni yaratishda qulay makon bo'ldi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,  
Gulruh MO'MINOVA,  
"Zarafshon"ning maxsus muxbirlari.

## Ta'lim sohasida hamkorlik aloqalari kuchaytiriladi

Samarqandda II "Ta'lim, fan va texnologiyalar sohasidagi innovatsion hamkorlik forumi" bo'lib o'tdi.

Forumni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov ochib berdi.

- So'nggi yillarda biz oliy ta'lim sifatini oshirish, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi, akademik mobillik va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiryapmiz, - dedi Q.Sharipov. - Bugungi forum aynan O'zbekiston va Xitoy mintaqalari o'rtasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, ta'lim tizimida ilg'or texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi 30 yildan buyon O'zbekistonning strategik hamkori sifatida ta'lim va ilmiy hamkorlik sohasida ham salmoqli qo'shma dasturlarni amalga oshirmoqda. Bugungi forumda ham istiqbolli hamkorlik bitimlari imzolaniishi kutilmoqda.

Forumda so'zga chiqqan Xitoy Xalq Respublikasi Shensi provinsiyasi gubernatori Zhao Gang Xitoy va O'zbekiston qadimdan Buyuk ipak yo'li orqali do'stona munosabatlari o'rnatib kelayotgani, keyingi yillarda ikki davlat ta'lim, ilm-fan sohasida ham hamkorlik bitimlari tuzayotganini ta'kidladi. Bundan keyin fan, ta'lim sohasida birgalikda ilmiy loyihalar olib borishga



tayyor ekanini bildirdi.

Tadbirida O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Energetika vazirligi va Sian neft universiteti o'rtasida O'zbekistonda Sian neft universiteti filialini tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va Sian xalqaro tadqiqotlar universiteti o'rtasida ta'lim sohasidagi anglashuv memorandum, Samarqand davlat universiteti bilan Sian arxitektura-texnologiya universiteti o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlik va almashinuv to'g'risida memorandum imzolandi. Bundan tashqari, ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'ndan ortiq hamkorlik bitimlari tuzildi.

Xurshida ERNAZAROVA.

## Jajjilarning ko'ngli ko'tarildi

1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni viloyatimizda keng nishonlandi. Viloyatning asosiy bayram tadbiri Samarqand shahridagi "Yoshlik" istirohat bog'ida tashkil etildi. Bog' erta tongdan jajji bolajonlar bilan gavjum bo'ldi. Bu yerga asosan, Oilaviy bolalar uylari va SOS mahallasi tarbiyalanuvchilari, boquvchisini yo'qotgan hamda ehtiyojmand oilalar farzandlari taklif etildi.



Tadbirida viloyat hokimi o'rinbosari Husan To'xtayev ishtirok etib, bolajonlarni bayram bilan qutladi.

- Maktabda faqat 5 baho olaman, - deydi qo'shrabotlik Diyorbek Abdulkarimov. - Matematika va boshqa fanlardan o'tkaziladigan tanlovlarda qatnashib, bir necha bor g'olib bo'lganman. Bu shahardagi istirohat bog'iga bundan besh yillar oldin dadam bilan kelgandik. O'sha paytda men bog'chaga borardim. Dadam olamdan o'tgandan keyin bunday

joylarga bormay qo'ydik. Bugun bu yerga ustozlarim va ayam bilan birga keldik. Bolalar bayramida qatnashayman. Arg'imchoqlarda uchyapman. Sovg'alar oldim.

Bog' hududidagi sahnalarda turli madaniyat rafi tadbirlar, konsert dasturlari tashkil etildi. Shahardagi bolalar musiqi va san'at maktablari o'quvchilari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar, viloyat qo'g'irchoq teatri ijodkorlari tomonidan tayyorlangan tomoshalar bolajon-

larga ko'tarinkilik bag'ishladi.

"Barkamol avlod" bolalar markazlari vakillari tomonidan tasviriy va amaliy san'at asarlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Istirohat bog'ida o'rnatilgan atraksionlar jajjilar uchun bepul xizmat ko'rsatdi.

Shunday tadbirlar viloyatning barcha shahar va tumanlaridagi istirohat bog'larida davom etdi.

To'lov SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV  
(surat).

## Пахтачига муносиб ном керак

Taklif



Миллий гурурнинг шаклланиши ва муносабатида анъана ва қадриятлар, тарихий номларнинг аҳамияти катта. Чунки улларда халқимизнинг кўп йиллик тарихи, ҳаёти акс этади. Уларни билмок эса, англамок эса миллат бирлигига, унинг маънавий қудрати юксалишига хизмат қилади. Мустақиллик туфайли кўплаб тарихий жой номлари, буюк аждодларимиз номи тикланиши, диний эътиқоддаги эврилишлар, давлат тили сиёсати фикримиз исботидир.



муносабатида анъана ва қадриятлар, тарихий номларнинг аҳамияти катта. Чунки улларда халқимизнинг кўп йиллик тарихи, ҳаёти акс этади. Уларни билмок эса, англамок эса миллат бирлигига, унинг маънавий қудрати юксалишига хизмат қилади. Мустақиллик туфайли кўплаб тарихий жой номлари, буюк аждодларимиз номи тикланиши, диний эътиқоддаги эврилишлар, давлат тили сиёсати фикримиз исботидир.

лар даврида, яъни V-VI асрларда Добус мустақил мамлакат пойтахти бўлган.

"Зиёвуддин" эса арабча сўз бўлиб, Ҳақнинг, эътиқоднинг нури маъносини беради. Адабиётда, хусусан, Алишер Навоий ижодида бу сўз ниҳоятда улугланган.

Зиёвуддин Бухоро амирлигининг муҳим беқликларидан бири бўлган. Бинобарин, XIX асрнинг йирик шоирларидан бири Мирза Салимий 1870 йилда Зиёвуддин вилояти ҳокимлигига котиб бўлиб ишлагани ҳақида маълумотлар бор.

1934 йилда туман ҳудудида илк археологик қазималар олиб борилган.

Зиёвуддин беқлиги 1920 йилгача фаолият кўрсатган. 1926 йилда у Нарпай тумани номи билан аталган. 1935 йилда алоҳида Пахтакор тумани бўлиб чиққан. 1963 йилда Нарпай туманига қўшилган ва 1973 йилда яна Пахтачи номи билан ажралиб чиққан.

Шуниси муҳими, тумандошларимиз ҳар иккала ном билан ҳам фахрланишади. Добусқалъа кейинги йилларда анча обод қилиниб, гавжум зиёратгоҳга айланди. Зиёвуддин шаҳарчаси ҳам бугунги кунда ҳавас қилса арзигулик маскан.

Фикримизча, Пахтачи тумани ана шу номлардан бири билан аталадиган бўлса, тарихий адолат тикланади, халқнинг орзу-ниятлари ушалади.

Дўстмурод АБДУЛЛАЕВ,  
Ўзбекистон Қаҳрамони.

Исमत САНАЕВ,  
ёзувчи ва шоир,  
филология фанлари номзоди.  
Салоҳиддин БОБОМУРОДОВ,  
меҳнат фахрийси.  
Фармон ТОШЕВ,  
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист.

Пахтачи тумани ҳудуди тарихи жуда узок

Prezident qaroriga ko'ra



## Kambag'al oilalarga berilayotgan mablag'lar nazorati kuchaytiriladi

**Prezidentimizning "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmoni va bu boradagi qarorlari aholining farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan. Biroq bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlarni ayrim oilalar noto'g'ri talqin qilib, boqimandalik kayfiyatiga berilib qolayotganligi ham sir emas.**

Joriy yilning 27-fevral kuni Vazirlar Mahkamasi ning "Oilalarni kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan ko'mak choralarini ko'rsatishga doir tartib-taomillarni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori bilan bunday oilalarga yordam ko'rsatish uchun ijtimoiy shartnoma tuzish sharti to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Mazkur nizomda 2025-yil 1-maydan ijtimoiy shartnoma asosida ko'mak ko'rsatish, ijtimoiy shartnomani rasmiylashtirish va unda nazarda tutiladigan shartlar va ijtimoiy shartnoma bajarilishini monitoring qilish tartibi belgilandi. Kambag'al oilalar reestriga kiritilgan oilalar ijtimoiy shartnoma shartlarini bajar-maganda, ularga tayinlangan va to'lab kelinayotgan ijtimoiy yordamni 15 foizga kamaytirish haqida kolle-gial qaror qabul qilinadi. Bir oyda ijtimoiy shartnoma bilan yuklatilgan majburiyatlarini takroran bajarmaganda ularga to'lanadigan nafaqa va moddiy yordam mahalla yettiligining kolle-gial qarori bilan 30 foiz-gacha kamaytiriladi. Shuningdek, ijtimoiy shartnoma asosida davlatning ijtimoiy ko'magidan foydalanib, o'zining majburiyatlarini bajarmagan fuqarolarning reestri yuritiladi. Ular reestrda bo'lgan davrida mahalla yettiligi yoki ularning vakillari tomonidan qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan kredit, subsidiya, grant va moddiy yordam turlari uchun tavsiyalar berilmaydi. Kambag'al oilaga, jumladan uning muomalaga layoqatli har bir a'zosi-ga ko'mak ijtimoiy shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish sharti bilan ko'rsatiladi.

Ya'ni, kambag'al oilaning mehnatga layoqatli a'zolarining ish bilan bandligi, ta'lim tashkilotlarida o'qiydigan a'zolarining darslarda muntazam qatnashishi, oilaga tegishli uyning sanitariya holati yaxshi saqlashi, shuningdek, tomorqasidan samarali foydalanishi (iste'mol qilishi mumkin bo'lgan ekinlar ekish) va qonunchilik hujjatlarida belgilangan imtiyozlar asosida ajratilgan moddiy-texnika vositalari va mablag'lardan to'g'ri foydalanishiga e'tibor qaratiladi.

Ushbu majburiyatlarini bajarmagan oilalarga nisbatan tegishli dalolatnoma rasmiylashtiriladi va yo'l qo'ygan kamchiliklar, majburiyatlarini 15 (o'n besh) ish kunida bajarmaganda oilaga berilayotgan ko'mak to'xtatiladi yoki kamaytiriladi.

Kambag'al oilaning mehnatga layoqatli har bir a'zosi ijtimoiy yordamni qayta tiklash uchun 3 (uch) oydan so'ng mahalla raisiga murojaat qilishi mumkin. Yangi tartib kambag'al oilalarni boqimandalik kayfiyatidan chiqarishga ko'maklashib, yaratilgan imkoniyatdan oqilona foydalanishga o'rgatadi va oilalarning daromad topishiga intilishini kuchaytiradi.

**E.RO'ZIVYEV,  
Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari.**

**Ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari ajratilyapti. Undan maqsadli foydalanayotgan yoshlar sharoitini yaxshilab, mavjud muammolarga yechim topyapti.**

Narpay tumani Xo'jaqo'rg'on mahallasida yashovchi Muhiddin Xudoyqulovni bir necha yildan beri ishsizlik muammosi qiynardi.

- 2013-yilda maktabni bitirib, akam bilan birga tadbirkorlikka qo'l urganmiz, - deydi u. - Ishimizni ikki quti asalari boqish bilan boshlaganmiz. Kundan-kunga tajribamiz oshib, asta-sekin ularni ko'paytirdik, qutilar sonini 50 taga yetkazdik. O'sha paytda ular yerda turardi. Topgan daromadimiz hisobidan maxsus tirkama yasattirdik. Qutilar joylashgan tirka-mani texnika yordamida tog'larga, dashtlarga olib chiqib, asalari boqish va mo'may daromad topish imkoni tug'ilgandi. Ammo xursandchiligimiz uzoqqa bormadi. Nimadir bo'ldi-da, asalarilarimiz qirilib ketdi.

Bundan tushkunlikka tushgan yosh yigitlarda yana asalari boqish va ularni ko'paytirish uchun na hafsala, na mablag' bor edi. Ishsiz qoldi. Kunlarning birida Muhiddin masalaga yechim topgandek bo'ldi. Xorijga ketishga qaror qildi.

- O'tgan yili bir tanishimning taklifi bilan tavakkal qilib, Rossiya davlatiga ishlash uchun ketdim, - deydi M.Xudoyqulov. - Oiladan olisda yashash va munosib sharoit bo'lmagan joyda mehnat qilish oson bo'lmadi. Oradan 7 oy o'tgach, mahallamiz yoshlar yetakchisi Ilhom aka Mardonovning telegram orqali yuborgan xabari Vatanga qaytishimga sabab bo'ldi. U menga qishloqqa qaytib, asalarichilik bilan shug'ullanishni davom ettirsam, bankdan imtiyozli kredit olishga ko'maklashishini aytdi. Yana asalarichilik bilan shug'ullana boshladim. Hozirda tirkamada 150 ta quti bo'lib, 40 tasida asalari boqilyapti. Yil oxirigacha ularning barchasini asalari bilan to'ldirishni maqsad qilganman. Asal yetishtirish - serdaromam ish. Kreditni ham muddatidan oldin qaytarishga harakat qilayman.

Mahalla yoshlaridan yana biri 4 sotix tomorqasida



## Kredit olish oson, qaytarish esa...

issiqxona qurish istagida bo'lgan Shohruh Ochilovga 65 million so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi va u qulupnay yetishtirishni boshladi.

- Shohruh ishbilarmon yigit, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Sardor Qo'ldoshev. - U Toshkent viloyatiga borib, usta dehqonlardan qulupnay parvarishlash sirlarini o'rganib keldi. Tomorqasida issiqxona tashkil qilib, mahsulotni gidroponika usulida yetishtiryapti. Bu nafaqat mahallamizda, balki tumanimizda ham yangilik bo'ldi. U qulupnayning yuqori sifatli "Salixan" navini parvarishlayapti. Bu nav juda xaridorgir ekan. Mart oyining boshidan hosil ola boshladi. Bir kunda 20 kilogram qulupnay terib, bozorga chiqarib, kilogramini 250 ming so'mdan sotdi.

Shohruh bankdan olgan kredit mablag'ini shu yilning o'zida qaytarishni maqsad qilgan. Shuningdek, u mahalladagi ishsiz tengdoshlariga ko'chat yetishtirib berib, ularning ham shu ish bilan shug'ullanishiga ko'maklashmoqchi.

Afsuski, bugun tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlardan hamma ham maqsadli foydalanmayapti. Oqibatda ham o'zi uchun ham bank xodimlari uchun muammo tug'ilyapti. Ana shunday fuqarolarga narpaylik Muhiddin Xudoyqulov va Shohruh Ochilov kabi yoshlarning ishini o'rnatqilib ko'rsatsa arziydi.

**To'liq SIDDIQOV,  
Husan ELTOYEV (surat).**

## Kimlar "Faxriy donor" bo'lishi mumkin?

**Bugungi kunda viloyatimizdagi tibbiyot muassasalarida yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarining ko'payishi qon va uning preparatlariga ehtiyojni oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida qon topshiruvchi donorga talabni kuchaytiradi. Shu maqsadda viloyat qon quyish stansiyasi va joylardagi uning bo'limlarida donorgalarni keng jalb qilgan holda qon topishirishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yil davomida bu borada turli tadbirlar, xayriya aksiyalari o'tkaziladi, targ'ibot ishlari olib boriladi.**



Bu ishlar natijasida 2024-yilda viloyatimiz bo'yicha 45 ming nafarga yaqin shaxs beg'araz qon topshirib, bu vositaga ega bemorlarning salomatligini tiklash, hayotini saqlab qolishga hissa qo'shdi. Shu o'rinda bir raqamni keltirib o'tsak, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2011-yilda viloyatimizda 10 ming nafar donor yordamida qon va qon

preparatlari tayyorlangan.

Ayni paytda respublikamizda umumiy qon va uning preparatlarini tayyorlash aholi soniga nisbatan 5-6 foizni tashkil etadi. Viloyatimizda esa bu ko'rsatkich 11-12 foizga yetgan. Yaqin yillarda donorgalarni safini yanada oshirish rejalashtirilgan.

Soha ishini takomillashtirish va beg'araz donorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida yurtimizda "Faxriy donor" ko'krak nishoni ta'sis etilgan. 40 martadan ortiq qon va uning preparatlarini topshirgan shaxslarga ushbu nishon taqdim etiladi.

14-iyun dunyo miqyosida xalqaro donorgalarni kuni sifatida nishonlanadi. Mazkur sana munosabati bilan viloyat qon quyish stansiyasida iyun oyi davomida donorlik oyligini o'tkazishga qaror qilindi. Yurtdoshlarimizni ushbu ezu ishda faol ishtirok etishga chorlaymiz!

**N.QULMURODOV,  
viloyat qon quyish stansiyasi kasaba uyushma boshlig'ich tashkiloti raisi.**

## Hech kim xatlovdan qolib ketmaydi

**Yurtimizda o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqni e'tirof etish bo'yicha yangi va yakuniy tartib belgilandi. Tegishli qonun asosida manzilli reja ishlab chiqilib, joylarda xatlov tadbirlari boshlab yuborildi. Biroq ahamiyot hali aksariyat fuqarolar tegishli hujjatning maqsadli mazmunini tushunmasligini ko'rsatmoqda.**

Qonunga muvofiq, o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalarini hamda ularda qurilgan bino va inshootlarni bosqichma-bosqich xatlovdan o'tkazish kadastr agentligi tomonidan tasdiqlangan har yilgi reja-jadval asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, bu ish bir oy yoki yilda yakunlanmaydi. Shu bois xatlovdan chetda qolib ketishdan hadiksirab, mas'ul idoralarga qayta-qayta murojaat qilish, xatlov o'tkazayotgan mas'ullarning ishiga xalaqit berish kerak emas.

Mazkur jarayon 2 bosqichda amalga oshiriladi, birinchi bosqichda kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi hududiy bo'linmalari tomonidan avtomatlashtirilgan axborot tizimida tegishincha ijara va mulk huquqini e'tirof etish masalasi ko'rib chiqiladigan yer uchastkasi,



bino va inshootning elektron yig'majildi yaratiladi hamda vakolatli tashkilotlarga yuboriladi. Bunda ham fuqarolar hech qayerga murojaat etishlari talab qilinmaydi. Xatlov ishlari uy-ma-uy yurib amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda esa ikki oy muddatda vakolatli tashkilotlar (jami 21 ta tashkilot) elektron yig'majildni ko'rib, tegishli ma'lumotlar va hujjatlarini avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish orqali xulosalarni birlashtiradi. Huquq barcha tashkilotlar tomonidan ijobiy xulosalar olingan taqdirda e'tirof etilishi mumkin.

Shundan so'ng avtomatlashtirilgan axborot tizimida to'liq shakllantirilgan elektron yig'majild ma'lumotlari jamoatchilikka e'lon qilinadi. Manfaaddor shaxslarning e'tirozlari mavjud bo'lgan taqdirda, ular ma'lumotlar e'lon qilingan kundan e'tiboran bir oy ichida vakolatli tashkilotlarga shikoyat qilishlari mumkin.

Huquqlarni e'tirof etish uchun bir martalik to'lov undiriladi hamda to'lov to'langan taqdirda yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi hamda unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan mulk huquqi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlari qabul qilinishi orqali e'tirof etiladi.

**Ozodjon SHODIQULOV,  
viloyat adliya boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.**

**Tumanda 45 ta arxeologiya va arxitektura objekti b'ulib, u'tgan yil viloyat madaniy meros boshqarmasi tomonidan 39 ta mu'ho-faza belgisi topshirilgan. Ammo e'dgorliklarning aksariyati koni-qarsiz holatda va hozirgacha mu'ho-faza belgilari u'rnatilmagan obidalar bor.**

## Jomboidagi madaniy meros ob'ektlari qachon ta'mirlanadi?



Jumladan, tumanning Qanqli mahallasidagi XIX-XX asrlarga tegishli Ibrohim ota masjidining ustunlari chiriib ketgan. Masjid ustunlari tez fursatda qayta ta'mirlanmasa, qor-umgiri kullarda ob'ektgga jiddiy zarar etishi mumkin.

Ku'kgumbaz mahallasida esa I, IX-X asrlarga oid tu'rtta tepalika b'ulib, mu'ho-faza belgisi u'rnatilmagan. Bundan tashqari, tumanda arxeologik ob'ektlar ru'yxatiga kiritilgan tepalikalarning aksariyatida mu'ho-faza zonalarini tashkil etilmagan va Nu'sh, Bobotepa, Urtabuz masjidlarining ta'miri koni-qarsiz holatda turibdi. Oqibatda hudud-da mahalliy aholi tomonidan chorva mollarini boqish, tuproq qazib olish va bosqa ma'qsadlarda foydalanish holatlari ku'p uchramoqda.

**SHAYX HUDOYDODI VALIY KIM B'ULGAN?**

Albatta, tumanda zi'rat-chilar bilan doim gavjum mu'qaddas qadim-jolar yu'k emas. Fa'izara qishloqda joylashgan Shayx Hudoydodi valiy majmu'sasi ana shunday zi'ratgohlardan biri. Bu erda kabriston, ma'qbara va masjid b'ulib, barchasi Yassaviya tariqatining atoqli vakili, sho'ir Shayx Hudoydodi valiy nomi bilan ataladi. Hazratning asl ismi Hudoyberdi b'ulgan. Ma'qbarada Shayx Hudoydodi valiy va ularning yaqinlari dafn qilingan. Manbalarga ku'ra, Shayx Hudoydodi valiy 1461 yilda (hozirgi Navoiy viloyati hududi) Karmana-da tu'gilgan. Boslang'ich ta'limni olgach, Samarqandga ke-

lib, Ulug'bek, Javzonia va Buxoroda-gi Mullalari Mu'hammad madrasalarida ta'lim olgan.

- Tarixiy manbalarda keltilirilib, Yassaviya tariqatining mashhur namoyandasi Shayx Jamoliddin Azizon shayx Hudoyberdinning ilm va ri'ozat i'ulidagi ma'naviy piri b'ulgan, - deydi Shayx Hudoydodi Valiy masjidi no'ib imomi Faxriddin Xu'jaqulov. - Shayx Jamoliddin Azizon tomonidan Hudoyberdiga "Hudoydod" (Hudo etkazdi, uchratiradi ma'nosida) deb nom beriladi. U kishining tarbiyasida 50 nafardan ortiq muridlar ushbu tariqatning nu'fuzli vakillari b'ulib etishadi. Jumladan, Shayx Hudoydod Validan kator risolalar va she'riy ma'zumalar meros kolgan. Tarixiy manbalarga ku'ra, Bobur Mirzo, Shayboni'xon, Jonibek Suldon va Ubaydullaxon kabi hukmdorlar Shayx Hudoydodini u'zlariga pir deb b'ulib, maslahatlariga amal qilgan.

2011 yilda hazrat taval-ludining 550 yilligi mu'nosabati bilan majmu'ada keng ku'lamli ta'mirlash ishlari olib borilgan. Darvoza va binolar yangilangan, ma'naviyat markazi barpo etilib, ma'naqoh u'rnida gum-bazili baland ma'qbara qurilgan. Darvoza-xona kengaytirilib, ku'cha tomonida gishtin devor barpo etilgan. 2014 yilda majmu'ada xashar va homiy-lar e'rдами bilan qurilish-bun'edkorlik ishlari olib borilgan. Ayni paytda bu e'zu ishlar davom ettirilib, majmu'a hududida homiy-lar ku'magi bilan yangi masjid qurilmoqda.

**Foziliddin RU'ZIBOEV.**

(Давоми. Бошланиши ўтган сонларда).

Ахир гап камида 1 миллион долларга сотиб олинган яхши асбоблар ҳақида боряпти. Бунга ҳам мен ўзим гувоҳ. 2000 йилда келтирилган бу асбоб коллеж ва лицейларнинг кимё кабинетларига берилди. 30 га яқин кимё ўқитувчиси Тошкент педиатрия институтининг академик лицейида 5 кун асбобда ишлашни ўрганди. Уларнинг орасида камина ҳам бор эди. Раҳбарларнинг режасига кўра, барча вилоятлардан борган ўқитувчилар асбобда ишлашни ўрганиб ўзининг вилоятидаги бошқа ўқитувчиларга ўргатиши керак эди. Беш кунлик ўқитишнинг мутлақо фойдаси бўлмади. Чунки турли ОТМларни битирган кимё ўқитувчилари ўқиган вақтида бунга ўхшаш асбобларни кўрмаган, билмаган, спектроскопия, электромагнит нурларнинг модда томонидан ютилиши, ютилишнинг миқдори ва концентрация орасидаги боғланиш бўйича элементар тушунчага эга эмас эди. Самарқандда мен ҳам 17 ўқитувчини ўқитдим, юқорида айтилган сабабларга кўра уларнинг аксариятининг саводи чиқмади. Бунинг асл сабаби ушбу асбоб университетларнинг 3-4 курс талабаларига мўлжалланган ва у ерда ўтиладиган фанларнинг дастурига кирган эди. Ушбу асбоб ва у билан боғлиқ мавзу лицей ва коллежларнинг кимё фани дастурида йўқ эди. Буни ҳамма ўқитувчилар айтишди. Бундай вақтда масала етарли даражада ўрганилиши ва унинг натижаларини ҳисобга олиб шунга яраша чора тадбир кўриш керак эди. Шундай қилиб, Олий таълим вазирлигининг айби, қуйи раҳбарларнинг тошмабинлиги, бефарқлиги, ожизлиги, саводсизлиги ва масъулиятсизлиги оқибатида қарийб бир миллион долларга сотиб олинган спектрофотометрларнинг бирортаси ишлатилмасдан адо бўлди. Бу каби воқеаларнинг сабаблари ўрганилмаса, бундай ишлар яна бўлади. Юқорида айтган AI 1200 атом абсорбцион спектрометр воқеаси бундан кейин бўлди ва ҳозир ҳам шунга ўхшашлари бўляпти. Масалан, университетларга, жумладан, СамДУга Shimadzu ширкатининг замонавий XRD-7000 маркали рентген дифрактометри сотиб олинган. Лекин уни ишлатиб натижа оладиган, қайта ишлайдиган, шарҳлайдиган, илмий мақола ёзиб ҳисобот кўришида тайёрлашгача бўлган ишларни қилишга ёрдам бера оладиган мутахассис йўқ, тайёрланмаган. Бундай масалаларда ахвол ҳамма жойда бир хил.

Беш бармоқ баравар бўлмагани каби инсонларнинг ҳам бўйи басти, жисмоний ва ақлий қобилияти ҳар хил, бу табиий. Шунинг учун кўплав ривожланган давлатларда мактаб ўқувчилари маълум даврларда (ёшда, синфда) интеллектуал қобилиятига (ИҚ) қараб ажратилади ва алоҳида-алоҳида мактабларда ўқитилади. Агар биз ҳам ўқувчиларни ИҚга қараб ажратсак, бир қисми камситилган бўлади, деймиз. Инсон ҳақ-хуқуқлари юқори даражада ҳимояланган АҚШ, Германияда буни улар ажратиш, камситиш деб қарамайди, балки табиий ҳол деб қарайди.

Аслида биз ҳам шу муаммага дуч келиб, уни ечишни бошлаган эдик, академик лицейлар ва касб-хунар коллежлари ИҚга қараб ажратишнинг меваси эди, лекин маълум сабабларга кўра ишни охирига етказмадик. Бу жараён табиий бўлганлиги ва шуни ҳисобга олиб, муаммони ечмаганлигимиз учун биз яна бошланғич нуқтага келдик. Аммо ИҚга қараб ажратиш табиий зарурат бўлганлиги учун билиб-билмай, уни давом эттиряптиз. Президент мактаблари бунга мисол. Президент мактабларига ўқувчилар айнаган ИҚга қараб танлаб олинапти. Шунинг учун, бундан 25-30 йил олдин қандай муаммага дуч келган бўлсак, яна шу муаммо олдимида кўндаланг бўлиб турибди. Демак, уни албатта ечиш керак. Ҳатто лицей ва коллежларнинг муваффақиятсиз яқини етарли даражада ўрганилгани йўқ. Бу ишнинг аянчли туғишида давлат органлари ва уларнинг масъул шахслари реал вазиятни билмасдан, ўрганмасдан, мутахассисларнинг фикрига қулоқ солмасдан, нотўғри қарорлар қабул қилиши ҳам катта роль ўйнади. Шунинг учун, таълимдаги хато ва камчиликларни келажакда такрорламаслик учун "таълим тарихи"ни узлуксиз ўрганиб бориш керак.

Ўқувчиларни камида икки марта, яъни бошланғич мактабни (4-синф)

# Болаларни интеллектуал қобилиятига қараб ўқитайлик, касб-хунар ўргатайлик



ва 9-синфни битирганда ИҚга қараб ажратиш керак. 9-синфдан кейин ўқиш мажбурий бўлмаслиги лозим. Ким ўқимайман деса, тегишли хужжатни бериб, унга оқ йўл тилаш керак, холос. У 16 ёшни тўлдириб, 17 га ўтган, яъни "суяги қотган" бўлади. Масалан, Германияда ўқиш муддати 5 йил бўлган Hauptschule (бош мактаб)ни тугатган ўқувчилар бўлади. Масалан, Германияда ўқиш муддати 5 йил бўлган Hauptschule (бош мактаб)ни тугатган ўқувчилар бўлади. Германияда ўқиш муддати 5 йил бўлган Hauptschule (бош мактаб)ни тугатган ўқувчилар бўлади. Германияда ўқиш муддати 5 йил бўлган Hauptschule (бош мактаб)ни тугатган ўқувчилар бўлади.

Мамлакатда туғилиш жуда катта, ҳар йили қўшимча топган пулнинг бир қисми янги боғча ва мактаб қуришга, янги тарбиячи ва ўқитувчи иш ҳақи тўлашга кетади. Бу бой мамлакатларга ҳам осон эмас. Шунинг учун 9-синфларни тугатган ИҚси юқори бўлган ўқувчиларни 11 йиллик мактабда қолдириб, қолганларини касб-хунар ўқув юртлари ва техникумларга ўтказиш керак. Тўққизинчи синфга асосий фанлардан (она тили, математика ва инглиз тили) 8-9-синф дастури талабига жавоб бермаган ўқувчи кейинги икки йилда уни ўзлаштирмаслиги кундай равшан. Бу 11-синфни тугатмаса, олий маълумот ололмайдми, дегани эмас. Эсини йиғиб, техникумни ва тегишли касб-хунар билим юртларини яхши тугатганлар фақат ўз йўналиши бўйича институтларга кириши мумкин.

Касб-хунар билим юртларидаги ўқиш муддати 2 йилга етказиш учун касбга алоқаси бўлмаган ҳар хил кераксиз фанларни тикиштиришнинг кераги йўқ. Баъзи касбларни ўрганиш учун 4-6 ой, баъзилари учун 1,0-1,5 баъзилари учун 2 йил вақт, баъзилари учун эса техникумни битириш керак бўлади.

Агар ҳукумат таълим соҳасида бирор нарса қилмоқчи бўлиб тақдир сўраса, биз ҳамма болаларни 11-синфга қўйтиш, бир синфда ўқийдиган ўқувчилар сонини камайтириш, бир сменада ўқитиш, физика, кимё лабораторияларини энг яхши асбоб-ускуналар билан таъминлаш, ўқитувчиларнинг ойлигини ошириш, хуллас, илгор мамлакатларнинг мактабларидаги шароитлар бўлиши истаймиз. Лекин масалан, Сингапурникидек, АҚШ, Германия, Жанубий Корея, Япониядагидек шароит яратиб беришга бизнинг мамлакатимизнинг иқтисодий имконияти борми? Бу мамлакатларда аҳоли жон бошига тўғри келувчи ялли маҳсулотнинг қиймати бизникидан нихоятда катта. Шунинг учун ҳар бир соҳага ўйлаб пул ажратишни, уни керакли жойга ишлатишни, тежаб сарфлашни муҳокама қилсак, тўғри бўлади. Менимча, ҳозир мактабларда ИҚ юқори бўлган ўқувчиларга етарли миқдорда ва мураккабликда би-

лим, паст бўлганларга эса вақтида ажратиш керак. 9-синфдан кейин ўқиш мажбурий бўлмаслиги лозим. Ким ўқимайман деса, тегишли хужжатни бериб, унга оқ йўл тилаш керак, холос. У 16 ёшни тўлдириб, 17 га ўтган, яъни "суяги қотган" бўлади. Масалан, Германияда ўқиш муддати 5 йил бўлган Hauptschule (бош мактаб)ни тугатган ўқувчилар бўлади. Масалан, Германияда ўқиш муддати 5 йил бўлган Hauptschule (бош мактаб)ни тугатган ўқувчилар бўлади.

Германияда мактаб таълим тизими 3 босқичга бўлинади: бошланғич (4 синфга), биринчи ўрта (4 дан то 10 синфга) ва иккинчи ўрта (10 дан то 13 синфга). Ҳамма учун 9 йиллик мактаб таълими мажбурий. Олти ёшга тўлган ҳамма болалар бошланғич мактабга (Grundschule) боради ва у ерда 4 йил ўқийди. Бошланғич мактабни тугатган ўқувчилар Hauptschule, Realschule, Gymnasium ёки Gesamtschule мактабларда ўқишни давом эттириши мумкин. Билими бўш ўқувчилар ўқишни давом эттириш учун Hauptschule (бош мактаб) ёки юборилади ва у ерда 5 йил ўқийди. Бу мактабларнинг асосий мақсади кам малака талаб қиладиган фаолиятга (мутахассисликларга, соҳаларга) тайёрлашдан иборат. Бу ерда фақат таянч (асос, негиз) бўладиган таълим олиш мумкин. Бу мактабларни тугатган ўқувчилар маълум соҳалар бўйича техникумлар ва институтларда ўқишни давом эттириши ёки ишга кириши мумкин.

Тўққизинчи синфдан кейин ўз ихтиёри билан ишга кетган, ИҚ кўра касб-хунар мактабларига, техникумларга ўтган ўқувчилар ҳисобига ўрта мактабларнинг 10 синфда кўли билан 25-30 фоиз ўқувчи қолади. Бу ўқувчиларга дарс берадиган билимли ўқитувчини танлов орқали ишга олиб, уларнинг ойлигини кўпайтириш керак. Шунда мактабга эркак ўқитувчилар қайтади. ИҚ юқори бўлган ўқувчиларга дарс берадиган ўқитувчиларнинг билим даражаси ва малакаси уларнинг эҳтиёжини қондирадиган, образли қилиб айтганда "миясини тўйгазидиган" даражада бўлиши керак.

Тўққизинчи синфдан кейин ИҚ бўйича мактабдан чиқарилган ўқувчиларни нима қилиш керак? Юқорида айтганимдек ўқимайман деганини ўқишга мажбур қилмаслик керак. Ўқийман, касб-хунар ўрганаман деганларига техникумда ўқиши ёки бирор касб-хунарни эгаллаш учун ҳамма шароитни яратиш керак. Касб-хунар ўргатувчи билим юртларини Самарқанд шаҳрида Корея Республикаси билан ҳамкорликда очилган касб-хунарга ўқитиш марказига ўхшатиб ташкил қилиш лозим. Билим юртларини йўналишига қараб замонавий асбоб-ускуналар, мамлакатда мавжуд барча уй-рўзгор аяқомлари, саноят маҳсулотларининг намуналари, электр қурилмалари, токарлик ва бошқа станоклар, компьютер ва қўл телефонларнинг моделлари, уларни созлайдиган асбоб-ускуна, анжомлар ва бошқа

керакли нарсалар билан доимий равишда таъминлаш зарур.

Тўртинчи синфда ИҚга қараб, юқори малака талаб қилинмайдиган мактабларга ажратилган ўқувчиларнинг ўқув режасида мураккаб фанларнинг соатларини камайтириб, меҳнат фанларининг соатларини ва турларини кўпайтириш керак. Ҳар бир касб эгаси қайси ташкилотда (хусусий, давлат) ишлашдан қатъи назар маълум касбни (пайвандловчи, токар, электрик, гишт терувчи, электрон асбобларни тuzатувчи уста ва ҳоказо) эгаллагандан кейин уни имтиҳон қилиб, шу соҳада ишлашига рухсат берувчи сертификат бериш керак. Майли, касб-хунар билим юртдан ташқарида, масалан, отасидан, акасидан, қариндошидан, устозлардан ўргансин, лекин мустақил ишлаши учун албатта, сертификат олсин. Сертификатлаш, ўқувчини касб-хунар билим юртига етаклайди. Сертификати бўлмаганларга паст ҳақ тўланадиган кам малака талаб қиладиган "қора" ишлар қолади.

Агар биз мактабдан ташқарида қолганларни замонавий касб-хунарга ўргатсак, имтиҳон қилиб, сертификат берсак, мамлакатда касб-хунар эгаллаган ёшларнинг, яъни малакали ишчи кучининг сони ортади. Хусусий ва давлат ташкилотлари сертификати бўлмаган пайвандловчи, электрик, курувчи, соловчи ва ҳоказо усталарни ишга олмайди. Сертификатлаш йўлга қўйилгандан кейин устани қақирганингизда сертификатинг борми деб сўрайсиз, яъни бу ишлар саводли мутахассисларнинг қўлига ўтади. Давлат пулига қурилган мактаб, боғча, кўп қаватли уйлар, йўллар ва ҳоказо қурилишлар сифатсиз. Бунинг биринчи сабаби коррупция бўлса, иккинчиси, саводсиз, энг арзон ишчи кучидан фойдаланиш. Демак, бундай жойларда саводсиз ишчи кучидан фойдаланишга барҳам берилади ва бу ишнинг сифати ошишига олиб келади. Ўзимизда ҳам сифатли ишга ишонч пайдо бўлади.

Агар мамлакатда мактаб ўқувчиларини ИҚга қараб, адолатли ажратиш йўлга қўйилса, ота-оналар боласига тарбия ва билим бериш масъулиятини ҳис қилиди ва бу ўз навбатида топган пулини катта тўйга, данғиллама уйга эмас, балки бола тарбиясига, унга билим беришга сарфлаш кераклигини тушуниб етади. Бу демографик жараёнга ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Масалан, халқи бой, тўқ яшайдиган Япония, Европанинг ривожланган давлатларида аҳолининг даромади яхши ва болалар сонини кўпайтирилганларга давлат катта-катта имтиёзлар бериши қарамасдан, табиий ўсиши кам ёки умуман йўқ. Сифатли рақобат-бардош маҳсулот ишлаб чиқараётган завод, фабрика ва корхоналар мураккаб ишлаб чиқариш қурулларни, ўлчов асбоблари, роботлашган технология тизимлар ва ҳоказо электрон асбоблар билан жиҳозланган. Уларнинг ҳаммаси компьютерлар билан бошқарилади. Демак, уларни ишлатиш учун юқори билим, малака ва тажриба талаб қилинади. Бозор очик, рақобат қилиб бўлдики, эски маҳсулот билан узок муддат ишлаб бўлмайди, демак, маҳсулотнинг сифатини яхшилаб, турини кўпайтириб бориш керак. Бу ўз навбатида ишлаб чиқариш жараёнида ишлатиладиган асбоб-ускуналарни навбат билан янгилашни, бу эса янги асбобда ишлашни ўзлаштиришни талаб қилади. Кризис тўғрисида ёки рақобатга дош беролмасдан ёпиладиган корхоналарнинг ишчи хизматчилари бозор талаб қиладиган янги соҳаларни ўзлаштириши керак бўлади. Бир сўз билан айтганда ўз билиминини, малакасини доим ошириб туриши зарур, йўқса ишсиз қолади. Бой мамлакатларда қорнини тўйгазиш масаласини ўйламасиз ҳам бўлади, тарбия, билим бериш масъулияти ва карьера уларни ўйлантиради. Биз ҳам шундай шароитда ишласак-кина, ривожланган давлатларда, бой бозорларда маҳсулот сотишни умид қилмас бўлади. Шундай ишласак, биримиз икки бўлмайди. Юқори билим, малака ва ақлий меҳнат талаб қиладиган бозорбоп маҳсулот ишлаб чиқарадиган корхоналар очолмай-миш. Очилган тақдирда эса юқори ойлик тўланадиган иш жойларини беғоналар, масалан, хитойлик ва хиндистонликлар эгаллайди. Чунки сармоядор сифатли маҳсулот чиқариш учун малакали мутахассисларни ишлатади. Биз ҳам болаларимизга яхши тарбия, билим бериш масъулиятини ҳис қилиб, шунга яраша иш қилмасак, болаларимизнинг келажак-и билан боғлиқ орзу-умидларимиз рўёбга чиқмайди.

**Абдулла ҚУВАТОВ,**  
СамДУ доценти.

**Рақобат қo'митаси вилоят ҳудудий бoшқармаси томонидан O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonunining амaliyotда qo'llanilish holatlari domiy monitoring qilib borilmoqda.**

## Reklamanning tartib va talabi bor

Xususand, kuzatishlar natijasida Samarqand shahrida joylashgan 2 ta mehmonxonada qonunning 16-moddasi talablari buzilganligi aniqlanib, tegishli tartibda ish qo'zg'atildi. Mazkur ish maxsus komissiyada ko'rib chiqilib, mehmonxonalar 47 million 600 ming so'm miqdorida jarimaga tortildi.

Bundan tashqari, Samarqand shahridagi "Minded" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli "Minded scool" o'quv markazi binosida joylashtirilgan reklama bannerida o'zbek kinoaktyori, xalqaro darajadagi huquqshunos va jurnalist Otabek Mahkamovning tasviridan uning rozilgisiz foydalanilganligi aniqlandi. Bu holat "Reklama to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi 3-qism 5-xatboshi (Jismoniy shaxsning nomidan yoki

tasviridan uning rozilgisiz foydalanish ta'qiqlanadi) talablarini buzgan holda nomaqbul reklama (noto'g'ri, axloqsiz, yashirin reklama, shuningdek, qonun talablariga mos kelmaydigan boshqa reklama) sifatida joylashtirilganligi sababli MChJga 23 million 800 ming so'm miqdorida jarima qo'llanildi.

Umuman, hududiy boshqarma tomonidan reklamalarning joylashtirilishi va tarqatilishi bo'yicha o'tgan yil davomida 4531 ta o'rganish (monitoring)lar amalga oshirilgan.

Mazkur tadbirlarda "Reklama to'g'risida"gi Qonun hamda qaror talablariga mos kelmaydigan 3270 ta holat aniqlangan.

Aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli ta'sir choralar ko'rilgan.

**O.BEKNAZAROV,**  
boshqarma bo'lim boshlig'i.

**REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR**  
MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## DIQQAT, TANLOV!

**"SAMARQANDNING ENG FAOL JURNALISTI"**  
TANLOVIDA QATNASHING!

**Viloyat hokimligi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi hamda viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi "Samarqandning eng faol jurnalisti" viloyat tanlovini e'lon qiladi.**

Tanlov televideniye, radio, internet, bosma nashrlar, fotojurnalistika va OAV bilan faol hamkorlik qilgan axborot xizmati yo'nalishlarida o'tkaziladi.

**Tanlov talablari quyidagicha:**

- viloyatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yaratuvchanlik ishlari hamda yil davomida turli bog'liq jarayonlarni keng yoritib borish;
- yoritilayotgan mavzuga chuqur yondashish, tahlil qilish, mustaqil jurnalistik fikr yuritish va jamoatchilik fikrini uyg'otishga intilish;
- Vatan, xalq, jamiyat manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatib mehnat qilayotgan zamondoshlarimiz siymosini yaratish.

**Tanlovga quyidagi hujjatlarni yuborishingiz talab etiladi:**

- muallifning pasporti nusxasi;
- muallif va uning professional faoliyati to'g'risida ma'lumotnoma (obyektivka);
- muallifning ijodiy va ijtimoiy faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositasi rahbarining tavsiyanomasi;
- muallifning manzili va aloqa telefonlari;
- ijodiy ishlarning fayl to'plami (albom holatida), skaner va elektron nusxasi (televideniye hamda radio bo'yicha ko'rsatuv va eshittirishlar disk yoki flesh xotirada).

Tanlovga 2024-yil 1-iyunidan 2025-yilning 1-iyuniga qadar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan kamida 5 ta ijodiy ishlar joriy yilning 20-iyunigacha tahririylatlar tavsiyasi bilan O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi (Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy. Viloyat Matbuot uyi)ga yuborilishi lozim.

**G'oliblar 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida e'lon qilinadi.**

**Murojaat uchun tel.: 66-233-91-59, 66-233-91-69.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Baxriyev Furkat Ziyayevichga (2024-yil 13-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Babadjanov Iloxonga (2011-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

## TOPGANGA MUKOFOT

Fuqaro Kobilova Munira Sattorovna nomiga 2018-yil 26-aprelda berilgan AA 0285866 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

**Telefon: +99891-030-38-83.**



## ТАЪЛИМ ВА ИЛМ бир-бирига тўсқинлик қилмаслиги керак

**Ўзбекистон олий таълимида кенг қўламли ислохотлар амалга оширилди. Таълим сифатини ошириш, фан ва илмий изланишларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Давлат сиёсатида таълим соҳасини модернизация қилиш, илмий салоҳиятни ошириш ва халқаро ҳамкорликни кенгайтиришга алоҳида аҳамият берилляпти. Шунга қарамаздан, амалиётда бир қатор муаммолар ва ечим талаб қилувчи масалалар сақланиб қолмоқда.**

### ИЛМИЙ САЛОҲИЯТ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИ ЎРТАСИДА НОМУТАНОСИБЛИК

Профессор-ўқитувчилар зиммасига дарс бериш, илмий мақолалар ёзиш, тадқиқот олиб бориш, турли ҳисоботларни тайёрлаш, маънавий-маърифий йўналишда маърузалар ўқиш, маҳалла фаоллари ва уюшмаган ёшлар билан ишларни ташкил этиш каби кўплаб вазифалар юкланмоқда. Бундай кўп қиррали юклама таълим сифати ва илмий натижадорликка салбий таъсир кўрсатади. Айниқса, профессор-ўқитувчилардан бир вақтнинг ўзида юқори сифатли дарс ва илмий фаолликнинг талаб этилиши, вақт ва ресурслар етарли эмаслиги туфайли ҳар икки соҳага бир-дек ёндашиш имконини чекламоқда. Илмий даражага эга кадрлар сони ортиб бораётган бўлса-да, уларнинг таълим жараёнида самарадорлиги бир хил даражада эмаслиги кузатилади.

Илмий тадқиқотлар кўп ҳолларда ўқув фанлари ва амалий таълимдан узоқлашиб кетгани сабабли педагогик маҳорат тизимли, ҳолис баҳоланмаёпти. Шу билан бирга, илмий ва таълимий фаолиятни бир шахс зиммасига юклаб, ундан юқори самара қуттиш амалиёти профессор-ўқитувчилар юкласини кескин оширмоқда. Бу ҳолат таълим сифати ҳамда илмий самарадорликка салбий таъсир кўрсатяпти.

### РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ТАЪЛИМ ВА ИЛМИЙ ФАОЛИЯТ

**Германия, АҚШ, Канада, Жанубий Корея ва Малайзия**да бу соҳада самарали тизим шаклланди. Улардаги университетлар фаолиятида икки турдаги махсус шатлар мавжуд: таълим шатлари асосан дарс бериш, ўқув-методик материаллар тайёрлаш ва талабалар билан таълимий дастурларни амалга оширишга ихтисослашган. Илмий шатлар эса мақолалар ёзиш, диссертациялар тайёрлаш, грантлар ва патентлар устида ишлаш, лаборатория тадқиқотлари ҳамда илмий раҳбарлик каби вазифаларни бажаради. Таълим ва илмий фаолиятнинг самарадорлигини ошириш мақсадида кўплаб хориж мамлакатларида профессор-ўқитувчиларнинг вазифалари ихтисослаштирилган шаклда ташкил этилади.

**Германия** университетларида икки йўналишли таълимга ихтисослашган профессор ва илмий тадқиқотчи профессор лавозимлари алоҳида ажратилган. Улар учун дарс юкласини юқори бўлиб, ундан илмий нашр фаоллиги камроқ талаб қилинади. Илмий тадқиқотчи профессор эса дарсдан тўлиқ озод қилинган ёки ҳафтага 2-4 соатгина ўқув машғулларини олиб боради. Унинг асосий вазифаси мақола ёзиш, илмий грантлар устида ишлаш ва тадқиқот гуруҳларини бошқаришдир. Бундай ихтисослашув натижасида таълим ва илм бир-бирига тўсқинлик қилмайди, ҳар бир профессор ўз вазифасини самарали амалга оширади.

**Жанубий Корея**да фақат илмга ихтисослашган шатлар жорий қилинган. Бу лавозимдаги ходимлар умуман дарс ўтмайди, улар тўлиқ давлат ва хусусий сектордаги илмий лойиҳаларда иштирок этади. Уларнинг фаолияти Scopus мақолалар, патентлар ва грант натижалари асосида баҳоланади. Илмий мақсудотлар тижоратлаштирилиб, инновация ва технология шаклида экспорт қилинади. Бу тизим университетларнинг халқаро рейтингда юқори ўринларни эгаллашини таъминлайди.

**Туркия – YÖK модели (юқори таълим кенгаши).** Туркия университетларида профессор-ўқитувчиларнинг дарс юкласини ва илмий фаоллиги алоҳида баҳоланади. Илмий фаоллик YÖK томонидан белгилаб берилган балл тизими асосида ҳисобланади. Илмий юкламани тўлиқ бажарган профессор-ўқитувчилар таълим юкласидан озод қилинади ва аксинча. Бундай тизим профессорларнинг ихтисослашувига ва функционал аниқликка асосланади. Давлат томонидан молиявий рағбатлантириш воситалари ҳам жорий этилган.

Ушбу мамлакатлар олий таълим тизимидаги илмий салоҳият, профессор-ўқитувчиларнинг илмий даражаси, тадқиқот имкониятлари ва илмий фаоллиги ҳам таълим сифати, ҳам илмий тадқиқот самарадорлиги учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу икки жиҳат ўзаро ҳамбарчас боғлиқ бўлиб, улардан бирини иккинчисидан устун қўйиш нотўғри ва самарасиз ёндашув ҳисобланади.

Илмий салоҳият таълим сифатига бевосита таъсир қилувчи муҳим омиллардан бири бўлиб, илмий даражага эга профессор-ўқитувчилар талабаларга, янгилашган ва тадқиқотга асосланган билим бериш имкониятига эга бўлади. Бунда устозлар ўқув жараёнида талабаларга тадқиқот руҳини синдириб, уларда мустақил фикрлаш, танқидий таҳлил қилиш ва илмий изланишга қизиқиш каби қобилиятларни ривожлантиради. Натижада таълим дастурлари илмий жиҳатдан асосланган, замонавий тенденциялар билан уйғунлашган, меҳнат бозори эҳтиёжларига мослашган бўлади. Илмий салоҳият юқори бўлган олий таълим муассасаларида янги билимлар, технологиялар ва инновациялар яратилади. Илмий лойиҳалар, грантлар ва халқаро ҳамкорлик имкониятларининг кенгайиши эса нафақат университетнинг салоҳиятини оширади, балки мамлакатнинг интеллектуал ва инновацион ривожига ҳисса қўшади.

### БИЗДАГИ МУАММОЛАРГА ЕЧИМ БОРМИ?

Ўзбекистон олий таълим тизимидаги энг катта муаммолардан бири таълимга бўлган талабнинг юқорилиги. Илм ҳам, таълим ҳам профессор-ўқитувчи елкасига юкланган. Бу оғирликни енгилаштириш, таълим ва илмий фаолиятни сифат жиҳатдан яхшилашга замонавий ва инсонпарвар ёндашув зарур. Бунинг учун ҳеч кимни камситмасдан, ҳеч кимдан ортиқ нарса талаб қилмасдан, балки ихтисослашув ва танлов эркинлигини таъминлаш асосий мезон бўлиши керак. Шу боис илмий тадқиқотчи-ўқитувчи лавозимини жорий этиш ва унинг ҳуқуқий мақомини белгилаш лозим. Бу янги лавозим таълим ва илмий фаолият ўртасидаги мувозанатни таъминлайди.

Ихтисослашган шатлар тизимини жорий этишда амалий ёндашувлар зарур. Бунинг учун олий таълим муассасаларида алоҳида янги тузилма яратиш шарт эмас. Аксинча, мавжуд бўлган бўлим ва бошқармаларнинг фаолиятига мақсадли қўшимча вазифалар юклаш орқали бу жараёни амалга ошириш мумкин. Жумладан, ўқув-услубий бошқармалар таълим шатлари билан ишлашга масъул бўлиши лозим. Улар қўйидаги вазифаларни бажаради: таълим шатларидаги профессор-ўқитувчиларнинг ўқув юкласини шакллантиради, юклама тақсимоти ва амалда бажарилишини назорат қилади, методик таъминот мониторингини амалга оширади, фан дастурлари, ўқув қўлланмалар, дарсликлар ҳолати, дарс сифати, дарс таҳлили ва талабалардан сўровнома олиш орқали таълим самарадорлигини баҳолайди, таълим сифатини таъминлаш бўйича барча фаолиятни мувофиқлаштиради. Яъни, таълим шатларида ишловчи профессор-ўқитувчилар фаолиятининг тўлиқ методик ва ташкилий назорати ушбу бошқарма зиммасига юкланади.

Таълим шатлари билан ишлашда ўқув-услубий бошқармалар масъул бўлгани каби илмий шатларни бошқариш, баҳолаш ва рағбатлантириш вазифаси илмий тадқиқот ва инновациялар бўлими зиммасига юклатилиши лозим. Ушбу бўлим илмий шатларни марказлашган тарзда илмий мақолалар ҳисоботи, хусусан, Scopus ва Web of Science мақолаларини мониторинг қилиш, ҳудудий, миллий ва халқаро илмий лойиҳаларни кузатиб бориш ва мувофиқлаштириш, илмий раҳбарлик базасини шакллантириш (DSc, PhD, магистр талабалар ва уларнинг илмий раҳбарлари рўйхати), илмий тадқиқот семинарлари, тақдимотлар ва ҳисоботлар ташкил этиш, илмий фаолиятни баҳолашда аниқ ҳужжатлар ва балл тизими асосида ҳисобдорликни таъминлашга хизмат қилади. Бу тизимда илмий шатдаги профессор-ўқитувчиларнинг самарадорлиги илмий бўлим томонидан баҳоланади, натижалар эса тегишли ҳужжатлар билан расмийлаштирилади.

Мазкур тизимнинг амалдаги ҳолатдан фарқи шундаки, профессор-ўқитувчилар ихтисослаштирилган фаолият йўналиши бўйича ишлайди. Ҳисобдорлик ва назорат ваколатлари таълим ва илмий бўлимлар ўртасида аниқ тақсимланади. Бу профессор-ўқитувчиларнинг қобилияти ва манфаатларига мос равишда таълим ёки илм соҳасида самарали фаолият юритиши учун имконият яратлади.

**Хуршид САМАТОВ,**  
ТАТУ Самарқанд филиали доценти,  
фалсафа фанлари доктори.



**Бирор халқнинг маданиятини билмоқчи бўлсанг, аввал мазори ва бозорини бориб кўр, деган нақл бор. Зеро, қабристон марҳумларнинг маскани, бозор эса тирикларнинг яшаш манбаи саналади. Шунинг учун айниқса, зиёратгоҳлар ва қабристонларни ободонлаштиришга катта эътибор қаратилмоқда. Марҳумлар мангу қўним топган масканларни обод қилиш биз, тирикларнинг вазифасидир. Қабристонларни зиёрат қилганда беихтиёр умр ўтқинчи эканлиги ёдимизга тушади. Ўзимизни хайрли ишларга чоғлаб, ножоиз ишлардан тийиламиз.**

## Ҳаж пулини қабристонга сарфлади

Бир неча йиллардан буён Ургут туманидаги Камонгарон маҳалласи қабристонига ҳам ободонлаштириш ишлари олиб борилмоқда. Бу юмушлар шу қишлоқда умргузаронлик қилган Адаш Юсупов ташаббуси билан бошланган эди. У турмуш ўртоғи билан ҳажга бориш учун йиққан маблағини қабристонни обод қилишга сарфлади.

У маҳалладошларимиз билан маслаҳатлашиб, 10 гектар майдонни эгаллаган қабристоннинг паҳса деворлари ўрнида ғиштин девор қилди. Ички йўлакларга тош-шағал тўкилиб, тартибга солинди. Учта дарвозахона, мусофирхона, масжид-музей қурилди. 200 мингга яқин арча кўчатлари, гуллар ўтказилди.

Шунингдек, Хўжа Убайдулла Ахрори Валининг қабри тартибга келтирилиб, ободонлаштирилди. Мақбара ҳовлиси кенгайтирилиб, деворлари қайтадан тикланди. Қабристон йўлакларига асфальт ётқизилди. Йўлакнинг икки четидаги мрамар лавҳаларга қабристонда ўқилади-ган дуолар, ҳадиси шарифдан намуналар, улуг алломаларимиз ҳикматли сўзлари ёзилган тахтачалар илинди.

Адаш Юсупов шу йил рамазон ойида вафот этди. У бошлаган хайрли ишларни фарзандлари ва қишлоқдош-



лари давом эттирмоқда. Бундан ташқари, Адаш Юсупов атрофида саховатли, кўли очик инсонларни жамлаб, Самарқанд шаҳридаги "Саховат уйи" ва Ургут туманидаги "Мурувват уйи"га бориб, бу масканларда яшовчиларга совға-салом, озиқ-овқат маҳсулотлари олиб борар эди. Шунингдек, вилотиимиз туманларига бориб, 20-30 нафар кам таъминланган, боқувчисини йўқотган оилалар фарзандларининг тўйларини ўтказиб беради.

**Мурод ҚУРБОНЗОДА,**  
халқ таълими аълочиси.

## Shoira she'rlaridan hikmat izladim

**Yaqinda pastdarg'omlik  
iste'dodli ijodkor Guljahon  
Mardon qizining she'riy  
o'plami qo'limga tushdi.  
Adabiyot ixlosmandi sifatida  
uni zavq bilan o'qib chiqdim.  
Shoiraning yaxshilik, mehr-  
oqibat, yaqinlarga e'tibor yoki  
beparvolikning oqibatlari va  
boshqa mavzulardagi she'rlari  
ko'nglimdan joy oldi. Uning bir  
she'rida shunday misralar bor:**

*Goh zorlardan so'z ochar bo'lsam,  
Sanchib ketar yurak bechora.*

*Shivirlaydi: Chidamoq - sharaf,*

*Hayot - sinov, baxtmas nachora.*

Muallif bu misralarida insonni ruhlantiruvchi ichki mulohazalarni ifoda qilgan.

"Chidamoq - sharaf", deya o'zini va o'quvchisini sabrli, jasoratli bo'lishga chorlayapti.

Shuningdek, misralarda qalbdagi yig'iyotgan iztirob va dardni namoyon etish oson emasligini ham ko'rish mumkin.

*Goh sukunat bag'rini yorib,  
So'z so'raydi hamiyatu orib.*

*Goh ko'nglingni nurga to'ldirar,  
Kutilmagan bitta e'tibor.*

Shoira samimiyat bilan jamlagan misralarida e'tiborning samarasini, qudratini namoyon etishga uringan. Inson qalbi uchun e'tiborning o'rni va ahamiyati alohida ekanligini ko'rsatib bergan.

Sinovlar davrida inson uchun eng zaruri ruhiy ko'mak, mehr va e'tibor ekanini uqtiradi. So'zim avvalida ta'kidlaganimdek, she'riyat ixlosmandiman, adabiyotshunos emasman. Shunday bo'lsa-da, oddiy, samimiy she'rlari bilan minglab o'quvchilariga ega shoira Guljahon Mardon qizining ijodini kuzatib, bir she'ri haqida fikr bildirishga harakat qildim. Asosiysi, uning asarlarini o'qib, o'zim uchun kerakli xulosa chiqardim. Zero, hikmat izlaganga hikmatdir dunyo!

**Zilola NEGMATJONOVA,**  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali talabasi.

## Афандининг янги ҳангомалари

### ВАҚТИНЧА КЕЛИН

Бахтга қарши Афандининг турмушга чиққан катта қизи олти ой деганда, оилавий мижозлар сабабли уйига қайтиб келибди. Кўнларнинг бирида эса унинг кенжа қизига ҳам олдинги қудасига қариндошлиги бор жойдан совчилар келибди.

- Афандим, совчилар қизингни бизга бермасанг бўлмайди, "Уламан Саттор, шу қизни келин қиламан", деб кўйишмаёпти. Нима дейлик? - деб маслаҳат сўрабди хотини.

Шунда Афанди меҳмонлар ўтирган хонага кириб, "Мени вақтинча турмуш қурадиган қизим йўқ", деб совчиларни қувиб солган экан.

### ШАҲАРГАЧА ЕТИБ КЕЛМАЙДИ

Афанди олий таълим муассасасининг талабаси экан. Математика фанидан имтиҳонда олган билетига муҳжмал жавоб бергани учун домла қўшимча савол бермоқчи бўлибди:

- Хўш, айтинг-чи, сизнинг қишлоғингиздан шаҳаргача бўлган йўлнинг узунлиги қанча?

- Олтиш чакиримлар чиқади, устоз.

- Унда жавоб беринг, қишлоғингиздан йўлга чиққан автобус соатига 70 километр тезликда юрса, қанча вақтда етиб келади?

- Устоз, бунинг иложи йўқ. Сабаби бизнинг кўчаларда 70 километр тезликда юрган автобус қалоқларга тушавериб, унинг биринчи ўн километрадаёқ ишдан чиқади.

**Абдижалил МАЖИДОВ,**  
Оқдарё тумани.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### 3-IYUN

**Emmanuel KALANTAROV** – (1932-1984) Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq rassomi.

**Bozorbey O'RINBOYEV** – (1936-2014) Jomboy tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor.

### 4-IYUN

**Bobomurod AHMEDOV** – 1963-yil Paxtachi tumanida tug'ilgan. Fizika-matematika fanlar doktori, akademik.

### 5-IYUN

**Hamroqul RAFIYEV** – 1939-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Bosqon uloqitirish bo'yicha O'zbekiston va xalqaro sport musobaqalari g'olibi. Pedagogika fanlari nomzodi, professor.

### 7-IYUN

**Abdurahim SOLIYEV** – (1939-2021) Forish tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori, shoir.

### 12-IYUN

**Mansur NOSIROV** – (1936-2005) Samarqand tumanida tug'ilgan. Kulol. O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi.

### 14-IYUN

**Izzatulla NURIDDINOV** – 1951-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Fizika fanlari doktori, professor.

### 15-IYUN

**Abdurashid ERGASHEV** – 1941-yilda Qo'qonda tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

### MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

### Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 470 nusxada chop etildi. Buyurtma 262. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56  
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

### Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

### Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

### Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

